

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA ZIYORAT TURIZMINI TASHKIL  
ETISHNING TARIXIY VA HUQUQIY ASOSLARI: NAVOIY  
VILOYATI MISOLIDA**

**Turdiyev Madiyor Mamanazarovich**

*"Alfraganus university" NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTI  
"Ijtimoiy fanlar" fakulteti, "Xalqaro munosabatlar va tarix" kafedrasi katta  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada ziyorat turizmini mamlakatimizda yo`lga qo`yish hamda rivojlantirish masalalari ko`rib chiqiladi. Shuningdek sohani rivojlantirish hamda tartibga solish institutlarining ahamiyati, uning ma`muriy-huquqiy jihatlari tahlil etiladi. Maqolada Navoiy viloyatining turistik imkoniyatlari, ziyorat turizmini takomillashtirish yo`nalishlari muhokama etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Turizm, rekreatsiya, metod, huquq, imkoniyat, ziyorat turizmi, xalqaro normalar, menejment.

**ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ  
ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: НА  
ПРИМЕРЕ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Турдиев Мадиёр Маманазарович**

*"Университет Альфраганус" ОБЩЕСТВЕННАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ  
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ*

Старший преподаватель факультета «Общественные науки», кафедра  
«Международные отношения и история».

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются вопросы становления и развития паломнического туризма в нашей стране. Также анализируется значение институтов развития отрасли и регулирования, ее административно-правовые аспекты. В статье рассматриваются туристические возможности Навоийской области, направления совершенствования паломнического туризма.

**Ключевые слова:** Туризм, рекреация, метод, право, возможность, паломнический туризм, международные нормы, менеджмент.

**HISTORICAL AND LEGAL BASICS OF ORGANIZING PILGRIMAGE  
TOURISM IN NEW UZBEKISTAN: THE EXAMPLE OF NAVOIY REGION**

**Turdiyev Madiyor Mamanazarovich**

*"Alfraganus University" NON-GOVERNMENT HIGHER EDUCATION  
ORGANIZATION*

Senior teacher of the Faculty of "Social Sciences", Department of "International Relations and History".

### **Abstract**

This article discusses the issues of establishing and developing pilgrimage tourism in our country. Also, the significance of industry development and regulatory institutions, its administrative and legal aspects are analyzed. The article discusses the tourist opportunities of Navoi region, directions for improving pilgrimage tourism.

**Key words:** Tourism, recreation, method, right, opportunity, pilgrimage tourism, international norms, management.

### **KIRISH**

**Ziyorat turizmi** – diniy turizmning bir turi bo‘lib, turli dinlar vakillarining ziyorat maqsadlarida qilgan sayohatlari yig‘indisi bo‘lib, ziyoratni odamlarning muqaddas joylarga sajda qilishlari deb bilamiz. **Diniy turizm** – turizmning mustaqil turi, uning boshqa turlar kabi o‘ziga xos navlari mavjud: ziyorat turizmi va ekskursiya hamda ta’lim yo‘nalishidagi diniy turizm.

O‘zbekiston turizm industriyasida ziyorat turizmi subyektlarining faoliyatları, talab va taklif qonunining ustuvorligi, tashkiliy iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishning ma’muriy mexanizmlarini yaratish holati kabi javjud ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jamiyatdagi turli ixtisoslashgan institutlar va ularning faoliyat yuritish tartibda to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.

Shunday ekan, O‘zbekistonda turizm industriyasining bugungi holatini o‘rganish bilan bir qatorda bozor mexanizmlaridan ham ustun turuvchi jamiyatning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, huquqiy mexanizmlari majmuasi sifatida namoyon bo‘luvchi mavjud institutlarning jarayonlarga ta’sir darajasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, hozirgi kunda zamонавији institutsional iqtisodiyot ziyorat turizmida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ko‘p tomonlama, kompleks yondashgan xolda o‘rganib chiqish va tahlil etish doirasini belgilovchi zamонавији iqtisodiy nazariyaning asoslaridagi to‘liq ratsionallik, ma’lumotlar va axborotlar bilan to‘liq ta’milanganlik, takomillashgan raqobat, faqat narx mexanizmi vositasida muvozanatning ta’milanishi kabi qoidalalar yaratadigan to‘sиллarni oldini oladi. Institutlarning tashkiliy iqtisodiy mohiyati ularning amalga oshiradigan quyidagi vazifalari natijasida shakillanadi:

- Institutlarning tashkiliy iqtisodiy mohiyati muvofiqlashtirish vazifasi bo‘lib, bevosita qo‘yilgan maqsad samarasining vujudga kelishi bilan bog‘liqdir.[1] Bunda muvofiqlashtirish samarasi tegishli agentlarning ma’lum bir xolatlarda boshqa iqtisodiy agentlarning harakatlarini tahlil qilish asosida o‘zlarining kelajakdagi harakatlarini istiqbollashtirish bilan bog‘liq xarajatlarga iqtisodiy yondoshganlikda namoyon bo‘ladi.

- Aniq bir institut mazmunining mavjud tavsloti iqtisodiy agentlarning aniq yo‘naltirilgan bir holatda qandai tartibda harakat qilishlari kerakligi to‘g‘risidagi axborotlar yig‘indisini mujassam etadi.

- Taqsimlash funksiyasiga ega bo‘lib, iqtisodiy agentlarning harakat yo‘nalishlarini belgilab qo‘yish orqali, ular o‘rtasidagi resurslar taqsimotiga soliq qonuqchiligi, bojxonayigimlarini aniqdash kabi qoidalari ta’sir etishi tushuniladi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Jahon iqtisodiyotida xalqaro turistik munosabatlarning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy negizini belgilab beruvchi asosiy institut Butunjahon turizm tashkiloti hisoblanadi.[2] Jahon iqtisodiyotida xalqaro turistik ayriboshlash jarayonlarining kengayib borishi xalqaro miqyosida ixtisoslashtirilgan turistik korxona va tashkilotlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

O‘zbekistonda ziyorat turizmida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy institutlar tizimi tuzilmasining milliy darajasiga oid qonunlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. Xususan, ushbu me’yoriy hujjatda har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklari belgilab berilgan bo‘lib, jumladan, unda respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, barcha fuqarolar dam olishi (IX-bob, 38-modda), har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42-modda)[3]

- “Xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi (1993y), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi to‘g‘risida”gi (1999y.), “Alovida faoliyat turlarini litsenziyalashtirish to‘g‘risida”gi (2000y.) Qonunlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining buyruqlari va qarorlari;

- Boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.

Mamlakatimiz olimlaridan X.M. Mamatqulov, I.S. Tuxliev, R.Hayitboev va boshqalar ilmiy ishlari hamda darsliklarida ziyorat turizmi, uning yurtimizdagи salohiyati o‘rganilgan va yoritib berilgan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Xalqaro va milliy bozorlarda jumladan, turizm bozorida turistik faoliyatni huquqiy ta’minalash va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari muhim o‘rinni egallab kelmoqda.[4] Bugungi kunda o‘z navbatida, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish qo‘mitasi buyruqlari va farmoyishlari milliy turizmnинг yaxlit tizim sifatidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi institutlar sifatida faoliyat yurgazmoqda.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining mukammal ishlab chiqilishi, sayyoohlilik industriyasining milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini umum davlat darajasida ko‘rilishini, hamda sohaning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Milliy turizmning rivojlanishiga xizmat qiluvchi konsepsiya sohaning istiqbolli masalalarini yechish va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatdagi zaruriy natijalarga erishish yo‘lida davlat va xususiy sektorning hamkorlikdagi harakatlarining samarali vositasiga aylanadi deb hisoblaymiz.

## NATIJALAR

Mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat olib boruvchi xo‘jalik subyektlarning hamkorlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tizimi nafaqat mavjud rasmiy institutlar orqali, balki sayyoqlik bozorlarida, jamiyatda amal qiluvchi norasmiy institutlar tarkibida ham shakllanadi va takomillashadi.[6] Jahon iqtisodiyotida institutsional nazariyaga binoan, o‘zgaruvchan tashqi muhit sharoitida iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim manbai xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik va ishonchga tayangan, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etuvchi, shaxslararo sherikchilik mas’uliyati, ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy javobgarlik kabi munosabatlardan tashkil topadi.

Mamlakatimizning barcha viloyatlari qatori Navoiy viloyati ham o‘zining yuqori dajarali turistik salohiyati bilan maqtana oladi. Jumladan quyidagi obyektlar diqqatga sazovor (1-jadval):

1-jadval

Navoiy viloyati ziyorat turizmi obyektlari

Obyekt nomi	Manzili
“Qosim Shayx” majmuasi	Karmana tumani, “Xo‘ja Xisrav” MFY
“Mavlono Orif Degaroniy” ziyoratgohi	Karmana tumani, “Degaron” MFY

Karmana tumanidagi Mavlono Orif Degaroniy ziyoratgohi ham yildan yilga obod bo‘lmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida Navoiy viloyatida ziyorat turizmi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Mavlono Orif Degaroniy nomi bilan ataladigan mazkur me’moriy majmuani restavratsiya qilish hamda uni sayyoqlik yo‘nalishiga kiritish ko‘zda tutilgan.

Mavlono Orif Degaroniy hazratlari 1313 yilda Hazora qishlog‘ining Deggaron dahasida tug‘ilgan. Asl kasbi do‘kondor bo‘lib, bo‘z to‘qish bilan shug‘ullangan, – deydi tarixchi olim Ramazon Egamov. – Mavlono Orif hazratlari Said Amir Kulolning eng yaqin shogirdlaridan, shuningdek, Bahouddin Naqshbandning ustozи bo‘lgan. Mavlono Orif XIV asrda, taxminan 1313-1380 yillar atrofida yashab o‘tgan. Qabrlari Deggaron masjidi yaqinida bo‘lgani uchun masjid ham Mavlono Orif Degaroniy deb atalgan. 2007 yil “Mavlono Orif Degaroniy” jome masjidi katta ziyoratgoh va ko‘rkam manzilga aylantirildi. Bugun majmuada muzey faoliyat ko‘rsatmoqda. Majmua tarkibida o‘z davrining taniqli tasavvuf peshvosi Mavlono Orif Degaroniyning qabri joylashgan.

Navoiy viloyatida ayni kunda 27 ta turistik kompaniyalar faoliyat yuritmoqda. Sayyoqlar uchun 40 dan ziyod yo‘nalishlar bo‘yicha sayohat tashkil etilayotir. Jumladan, ekoturizm, ziyorat turizmi, agroturizm yo‘nalishlarida yangi marshrutlar ishlab chiqildi. Viloyatda 340 kilometr masofada 60 ta obyektdan iborat 14 ta turizm marshrutlarini o‘z ichiga olgan Navoiy “turizm xalqasi” tashkil qilingan. Unga Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlari ham kiritilgan.

**Qosim Shayx maqbarasi** Navoiy shahrida joylashgan qadimi obidadir. Ushbu qadimi obida masjid, ziyoratchilar uchun xonaqoh va ikkta o’z ichiga qamrab olgan.

Maqbara **1571-** yilda qurila boshlangan. Saqlanib qolgan yilnomalarga ko’ra, **Qosim Shayx Azizon Karminagiy**(1500/1578-79 yy.) O’rta Osiyoning mashhur diniy-siyosiy rahnomalaridan bo’lib, sarhalqasi Xo’ja Ahmad Yassaviy bo’lgan.

Qosim Shayx hazratlari Mavarounnahrda taxt uchun kurash davrida o’zlarining tinchliksevarlikka qaratilgan faoliyatları bilan xalq orasida mashhur bo’lganlar.


U Samarqand, Toshkent va Turkiston harbiy kuchlaridan tuzilgan qo’shinga qarshi jangda **Abdullaxon II** ga yordam beradi. Qosim Shayx hazratlari harbiy harakatlarda ishtirok etganlar v axon oila a’zolari va xizmatkorlarini qal’a ostiga berkitganlar.

**1579-yilda** Qosim Shayx hazratlari noma'lum sabablar bilan vafot etganlar va xazir markaziga dafn qilinganlar. Qabrlari ustiga marmardan ishlangan ulkan dahma o’rnatilgan. Olimlarning ta’kidlashicha, maqbara hududidagi birinchi bino aynan Qosim Shayx Azizon tomonidan qurdirligani ekan va bu bino vafotlariga qadar madrasa vazifasini o’tagan. Ushbu binodan namozgoh sifatida foydalanilganligi haqida ma'lumotlar ham mavjud. Amazon-hayit, Qurbon-hayit bayramlarida bu yerda ommaviy namoz o’qilgan.

Bugungi kunda Qosim Shayx maqbarasi **2000ta** artefaktni o’zida mujassamlashtirgan muzeyni, maraka-marosimlarni o’tkazishga mo’ljallangan ehsonxonani, masjid imomi turargohini va mevali bog’ni o’z ichiga qamrab olgan.

Masjidning markaziy kirish qismi mukammal tarzda ishlangan arka va arab tilida yozilgan yozuvlardan iborat. Masjidning ichki devorlari, ustunlari oq rangda bo’lib, o’yma naqshli ganchlardan iborat.

*еггарони масжиди Навоий вилоятида жойлашган бўлиб, Ислом маданиятига оид энг қадими обидалардан ҳисобланади. Ушбу масжид XI асрда қурилган. Рус олими Ю.Якубовский бошчилигида Эрмитаж томонидан олиб борилган экспедициянинг илмий холосаларига кўра, унинг қурилиши VII-IX асрларга бориб тақалади. Деярли, барча манбаларда масжид номини кулолчилик билан боғлашади, яъни Деггарон бу Кулоллар деганидир.*



Deggaron masjidi zamnaviy O’zbekiston hududida joylashgan islam madaniyatiga tegishli ilk saqlanib qolgan qurilish inshootlaridan biri. Uning qurilgan

vaqtin, taxminan XI asrga tegishli, masjidning atrofida undan ham avvalroq davrga tegishli qadimiy shaharcha devorlari arxeologlar tomonidan aniqlangan. Deggaron masjidi Buxorodagi eng qadimiy masjid bilan taqqoslaganda, somoniylarning Mox masjidi o‘rniga qurilgan XII asrda ko‘tarilgan Magoki-Attoriy bilan tenglasha oladi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xalqaro va milliy turizm industriyasida klaster doirasida gorizontal hamkorlikning jihatli belgilaridan biri bu soha faoliyati doirasi bo‘yicha o‘zaro yaqin va hamkorlikda bir-birini qo‘llab quvvatlaydigan va bir tarmoqqa bog‘liq, yuridik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan mustaqil turistik klaster ishtirokchilarining iqtisodiy va huquqiy jihatdan teng hisoblanadi. Klaster ishtirokchilari sayyoqlik bozoridagi raqobatchi sifatida o‘rnlarni tark etmagan holda o‘zaro qulay va manfaatli sharoitlarda, strategik maqsad sari o‘z harakatlarini soha bozorlarida o‘z aro moslashtiradilar.

O‘zbekiston turizm industriyasida gorizontal o‘zaro hamkorlik turlariga ma’lum tegishli hududda turizmni rivojlantirish masalalarining yechimlarini belgilash yo‘lida o‘zimkoniyatlarini birlashtirishga yo‘naltirilgan hamkorlik borasidagi shartnomalar, iqtisodiy xo‘jaliklar doiralarining notijorat birlashmalari miqyosidagi hamkorlik aloqalari kiritiladi.

Mamlakatimizning turistik xizmatlar soxasida uning ma’lum bir subyekti tomonidan yolg‘iz hal etib bo‘lmaydigan masala va muommolar uyushma ishtirokchilarining xamjihatlikdagi harakatlari orqali yechiladi. Tashkil etilgan sayyoqlik klaster a’zolari Uyushmasi faoliyati quyidagi yo‘nalishlardagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- ziyorat turizmida ishtirok etuvchi turistik klaster a’zolarining tashkiliy - iqtisodiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish;
- ziyorat turizmida kuchli raqobatga ega turizm industriyasi sohasining mehmonxona, ekskursion va boshqa turli faoliyat sohalari bo‘yicha o‘z tegishli standartlarini ishlab chiqish va turistik klaster doirasida a’zo tashkilotlar faoliyatiga ushbu standartlarni belgilangan tartibda joriy qilish;
- ziyorat turizmi sohasida mavjud servis xizmat ko‘rsatish faoliyatni amalga oshirishdagi tegishli sifati ustidan monitoring nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish
- O‘zbekiston Respublikasining ziyorat turizmi sohasiga oid qonun va me’yoriy hujjatlarning loyihamalarini muhokama qilish orqali ularni ishlab chiqilishiga ko‘maklashish.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Tuxliev N. Jivanov O‘. Turizmning rivojlanish milliy modellari. Darslik. – T.: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2020. – 256 b.
2. Abdullaev R. Turizm Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari iqtisodiyining ustuvor yo‘nalishi sifatida. SHARQSHUNOSLIK. №3, 2019. B.135.
3. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). – dissertatsiya ishi, Samarqand. 2017.

4. Xudoyarov A.A. “O‘zbekistonda ziyyarat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” monografiya. T.«COMPLEX PRINT» nashriyoti, 2021.285 b.
5. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti. 2021
6. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm, Darslik. 2020
7. Xolxo‘jaev S. Ziyyarat turizmi, Islomiy turizm, diniy turizm, shar’iy turizm va halol turizm? Qay bir atama to‘g‘ri? <https://azon.uz/content/views/ziyorat-turizmi-islomiy-turizm-diniy-tur>